

DERMATOLOGIK TEMINLARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI

Mutallibova Rayhona Mirmahsud qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti talabasi

e-mail: mirmahsudovnar@gmail.com

+99893-373-29-07

Annotatsiya: *Ushbu maqola dermatologiya sohasiga oid bo‘lgan terminlarning o‘zga tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o‘rganishga va muqobil ko‘rinishlarini topishga bag‘ishlandi. Tadqiqotda dermatologiya sohasiga oid atamalarning strukturaviy, semantik va terminologik o‘ziga xosliklari o‘rganilgan hamda ularning ikki yo‘nalishda-ingliz tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonlari tahlil qilib o‘tilgan. Maqolada terminologik moslik, tarjima jarayonida uchraydigan leksik-semantik muammolar hamda ekvivalent tanlash prinsiplari yoritilgan. Izlanilgan natijalarga ko‘ra, dermatologik terminlarning tarjimasida ularning morfologik shakli, semantik kengayishi, va lotincha ildizlarning to‘g‘ri talqini muhim ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *ekvivalent, dermatologiya, terminologiya, tarjima, semantika, tibbiy terminlar, morfologik tahlil, o‘zbek tili, ingliz tili.*

Bugungi kunga kelib, butun jahonda har bir soha, har bir jabha kundan-kunga rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Shuningdek, tibbiyot hamda tarjima sohalari ham shular sirasiga kiradi va bugungi kunga kelib, ko‘plab tarmoqlarga ega. Xususan, dermatologiya sohasida xalqaro termin va atamalarning yagona talqini, ularni milliy tibbiy tizimga moslashtirib olib kirish masalalari shu kunlarda muhim ilmiy muammolar keltirib chiqarmoqda. Dermatologik terminlar, odatda, lotin yoki yunon tillaridan olinadi va o‘zga tillarda turlicha ifodalanadi. Masalan, “eczema” atamasi ingliz tilida umumiy teri yallig‘lanishi bildirsa, o‘zbek tilida u “terining allergik kasalligi” talqinida tarjima qilinadi va torroq ma’noda ishlatiladi.

Maqolada dermatologik terminlarning ikki yo‘nalishda-ingliz tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinishli tizimli tahlil qilingan. Ilk bor o‘zbek tibbiy atamalari bilan xalqaro dermatologik terminlar o‘rtasidagi semantik parallelizm ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Ushbu maqola orqali olingan natijalar medik tarjimonlar, terminologlar hamda filologlar va ushbu sohalarda ta’lim olayotgan talaba hamda o‘quvchilarga amaliy qo‘llanma bo‘lishi

mumkin. Shu bilan birgalikda, dermatologik atamalarning yagona lug‘aviy bazasini mujassam etish uchun ilmiy asos yaratadi.

Ushbu maqolani yozish uchun ingliz tilida ko‘p qo‘llanib kelinadigan bir qator dermatologik terminlar tanlab olinib, ularning o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari va qo‘llanilish xususiyatlari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, ko‘plab atamalar yunon hamda lotin tillariga borib taqaladi hamda xalqaro tibbiy terminologiyada bir xil shaklda foydalaniladi. Shuning uchun ham o‘zbek tili ham bu terminlarni fonetik jihatdan o‘zgartirish orqali tilga moslashtirgan.

Masalan, inglizcha psoriasis, eczema, dermatitis, furunculosis so‘zlari o‘zbek tilida mos ravishda “eczema”, “psoriaz”, “dermatit”, “furunkulyoz” talqinida qo‘llaniladi. Bu terminlarning izohi Adham Vaisovning “Teri va tanosil kasalliklari” darsligida keltirilgan. Muallif ularni klinik belgilari asosida tibbiy tilde izohlaydi:

Eczema	Terining yallig‘lanish kasalligi hisoblanib, qichishish, suyuqlik ajralib, qobiq hosil qilishi bilan kechadi.
Psoriaz	Surunkali, qaytalanuvchi teri kasalligi bo‘lib, terining ustida kumushsimon qobiq hosil qilib, pushti dog‘lar qoldiradi.
Dermatit	Turli tashqi va ichki omillar natijasida yuzaga keluvchi terining yallig‘lanish holati.
Furunkulyoz	Soch folekulasi va atrof to‘qimalarning yiringli yallig‘lanish kasalligi.

Yuqorida keltirilgan terminlarning ingliz tilidagi talqinlari ham deyarli bir xil va o‘xshash: eczema-inflammatory skin disease, psoriasis-chronic autoimmune skin disorder, dermatitis-inflammation of the skin, furunculosis-recurrent boils due to the infection of hair follicles. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, dermatologik atamalar xalqaro miqyosda o‘zaro moslashgan va o‘zbek tilidagi ekvivalentlari ham ilmiy tomonlama asosli hisoblanadi.

Dermatologik terminlarning aksar qismi o‘zbek tiliga fonetik moslashuv usuli orqali o‘tgan. Bularga misol qilib: papule-“papula”, pustule-“pustula”, comedo-“komedon”, vitiligo-“vitiligo” atamalarini keltirsak bo‘ladi. Ushbu sanalgan terminlarning etimologiyasi yunon hamda lotin tillaridan kelib chiqqan. O‘zbek tilida esa ayrim unli tovushlarning o‘zgarishga uchrashi kuzatiladi. Natijada “pustule” emas, balki “pustula” tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi.

Shuningdek, “erythema” atamasi “eritema” shaklida qabul qilingan. Bu so‘z yunoncha ildizga ega bo‘lib, “erythros” (qizil) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “teri qizarishi” ma‘nosini anglatadi. Bu haqida Kittler H va boshqa izlanuvchilar tomonidan yozilgan “

Standardization of Terminology in Dermoscopy" (Journal of the American Academy of Dermatology, 2016.)maqolasida ham tasdiqlab o‘tilgan. Mualliflar dermatologik terminlarning fonetik moslashuvi xalqaro standartta o‘zgartirilmasligini, lekin har bir til fonetik tizimga ko‘ra talaffuzda farq bo‘lishi tabiiy holat ekanligini ta’kidlaydi.

Maqolada terminlarning semantik mosligi ham tahlil qilinadi. Ba’zi terminlar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, ba’zilari adaptatsiya usulida yoki snoska(izoh) berish orqali tarjima qilinadi. Masalan:

Lesion	Klinik kontekstda “teri o‘zgarishi” yoki “shikastlangan joy” tariqasida tarjima qilinadi. Ingliz tilida bu atama har qanday potologik o‘zgarishni anglatadi.
Rash	“toshma” deb tarjima qilinsa, biroq u tibbiy kontekstda “teri ustida paydo bo‘lgan o‘zgarishlar” ma’nosini anglatadi.
Plaque	Bu atama ikki xil kontekstda qo‘llaniladi: dermatologiyada “ yassi, ko‘tarilgan dog’” ma’nosida bo‘lsa, stomatologiyada esa “tish plakati” sifatida. Shuning uchun ham tarjima jaraonida kontekst aniqligi juda muhim hisoblanadi.

Shah V.V. va hamkasblari tomonidan JAMA Dermatology jurnalida(2011) e’lon qilingan “Dermatologic Etymology: Descriptive Terms of Color” maqolasida ta’kidlab o‘tishicha, ranglarni bildiruvchi atamalar tarjomada to‘g‘ri semantik so‘zn tanlashni talab qiladi, chunki rang tavsifi klinik tashxisda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, erythematous-qizarish, cyantic-ko‘kimtir, pallor-oqarish. Shu bois o‘zbek tiliga tarjima qilinganda erythematous rash atamasini “ qizil toshma” tarzida, cyanotic leisonni esa “ko‘kimtir do‘g” tarzida berish eng aniq ekvivalent hisoblanadi.

Adham Vaisovning ishlab chiqqan darslik qo‘llanmasida ayrim terminlarning o‘zbek tilida aniq tibbiy taraflama talqinini uchratishimiz mumkin. Hozir quyida ko‘rsatmoqchi bo‘lgan jadvalimda darslikdagi ba’zi terminlarning inglizcha ekvivalenti bilan taqqoslangan holatini ko‘rsatib o‘tmoqchiman:

Ingliz tilidagi termin	O‘zbekcha shakli	Izoh (Vaisov darsligi asosida)
Eczema	Ekzema	Teri yallig‘lanish kasalligi,qichishish bilsn kichadi
Psoriasis	Psoriaz	Qaytalanuvchi surunkali teri kasalligi
Furunculosis	furunkulyoz	Soch folekulasida yiringli yallig‘lanish holati

Alopecia	Alopesiya	Soch to‘kilishi, kallik
Seborrhea	Seboreya	Yog‘ bezlari faoliyatining buzilishi
Vitiligo	Vitiligo	Teri pigmentatsiyasining yo‘qolishi(oq dog‘lar)

Yuqorida sanab o‘tilgan tibbiy terminlar turli tibbiyotga doir adabiyotlarda ham, xalqaro miqyosdagi manbalarda ham bir xil semantik ma’noga ega. Shu bilan birgalikda, ayrim hollarda acne vulgaris (“oddiy husnbuzar kasalligi”) kabi termin so‘zma-so‘z tarjima qilingan bo‘lsa ham, ammo klinik nuqtai nazardan lotincha nomi ko‘proq qo‘llaniladi.

O‘zga tillardan tarjima qilinayotgan tillarda, xususan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjima ko‘plab muammolarga uchraydi. Quyida uchrashi mumkin bo‘lgan asosiy muammolar ketma-ket keltirildi:

1	Ko‘p ma’nolilik	Bilamizki, so‘zlar bir ma’nosidan boshqa kontekstiga arab har xil ma’nolarda kelishi mumkin. Bunga misol qilib Leison va eruption so‘zlarini olsak bo‘ladi.
2	Fonetik moslashuvda izchillik yetishmasligi	Ba’zi manbalarda “psoriaz”, boshqalarida esa “psoriyaz” shakllari uchrashini kuzatishimiz mumkin
3	Normativ ekvivalentning yo‘qligi	Masalan, flare-up atamasi “kasallikming kuchayishi” deb tarjima qilinadi, ammo bu tibbiy termin uchun yagona tibbiy ekvivalent yo‘q. Post-acne ham shu muammo sirasiga kiradi.
4	Terminologik tizimning bir xil emasligi	O‘zbek tibbiyot adabiyotlarida ayrim terminlar rus tili orqali kirganligi tufayli, ba’zi hollarda ruscha shakl ustunlik qiladi. Masalan, “pustula” so‘zi o‘rnida “gneochok, gnoi”, “husnbuzar” so‘zi o‘rnida “ugri” yoki “akne”, husnbuzardan qolgan dog‘larni esa “post-akne” so‘zlari bilan almashinib qo‘llanilgan holatlarni guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Karimova O. (2021) tomonidan yozilgan “Tibbiy terminlarning tarjima xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida bu muammo “rus-orqali tarjima” deb aytib o‘tiladi. Karimovanning fikriga ko‘ra terminlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ingliz tilidan o‘zbek tiliga olib kirishda semantik aniqligini ta’minlaydi va men ham ushbu fikrga qo‘shilaman. Terminlarning to‘g‘ri tarjima

qilinishi uchun so‘zma-so‘z va izohli tarjima strategiyalarini muvofiqlashtirish va yagona o‘zbekcha tibbiy terminologik lug‘at yaratish, ishlab chiqish zarur.

Maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi dermatologik atamalarining turli jihatlari, xususan, lingvistik, semantik va terminologik tomonlama tahlil qilib chiqildi. Tahlillarga ko‘ra, yuqorida eslatib o‘tilganday, terminlarning ko‘plab qismi yunon hamda lotin tillariga mansub va bugungi kunda ham ushbu terminlar xalqaro miqyosda bir xilda qo‘llanib kelinadi. Shu bois, o‘zbek tilida bu terminlarni fonetik jihatdan moslashtirib, til iste‘moliga kirgizish qisman to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Maqola yozish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar xulosasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tibbiyot terminologiyasi xalqaro standartlarga yaqinlashayotganini kuzatishimiz mumkin.

Biroq, tahlil jarayonida tarjima bilan bog‘liq muammolar ham yo‘q emas. Jumladan, inglizcha terminlarning bir nechitasi o‘zbek tiliga tarjima qilinganida ma‘no o‘zgarish holatlari, kontekstga qarab turli tarjimalarga ega bo‘lishi ham uchrab turadi. Shunigdek, ayrim terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaganligi bois, ya‘ni rus tili orqali kirib kelganligi natijasida terminlarning fonetik nomuvofiqliklarga uchrashini guvohi bo‘lamiz.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida dermatologik terminlarning ilmiy-nazariy asosida o‘zlashtirilishi, tibbiyot sohasida terminologik aniqlikni ta‘minlaydi va tarjimonlar uchun professional me‘yoriy yondashuvni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaisov A. (2018) Teri va tanosil kasalliklari.-Toshkent:Tibbiyot nashriyoti
2. Kittler H.; et al.(2016) Standardization of Terminology in Dermoscopy: Results of the Third Consensus Conference of the International Society of Dermoscopy.-Journal of the American Academy of Dermatology
3. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.
4. Shah V.V.,Mlacker, S., Aldahan, A.S., Nouri, K.(2011) Dermatologic Etymology: Descriptive Terms of Color.-JAMA Dermatology
5. Karimova O., (2021) Tibbiy terminlarning tarjima xususiyatlari.-Dissercat.uz
6. Mamarasulova, S. S. (2025). Reklama tarjimasining ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), 8(2),